

“BYD Uzbekistan Factory” MChJ QK

Bosh direktorining

17.12.2025

— 0871 —son buyrug‘iga ilova

**“BYD UZBEKISTAN FACTORY” MCHJ QKNING
BIZNES HAMKOR VA UCHINCHI TOMONLARNI
KOMPLEKS TEKSHIRISH
TARTIBI**

I. Umumiy qoidalar.

Mazkur tartib "BYD Uzbekistan Factory" MCHJ QK (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) va uning tarkibida hamda boshqaruvida bo'lgan korxonalarda Biznes hamkorlar va uchinchi tomonilar ishonchlilik tekshiruvi (Due Diligence)dan o'tkazish tartibini belgilaydi.

Tartib Jamiyatning qabul qilgan "Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks tekshirish Siyosati" ning (bundan buyon "Siyosat" deb yuritiladi) bir qismidir.

1-bob. Tartibning maqsadi va uning qo'llanilish sohasi.

1.1. Tartibning maqsadi - Jamiyat biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan ishlashda qonunchilik, halqaro normalar, ichki tartib-qoidalar va boshqa olingan majburiyatlar talablarini ta'minlash, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, firibgarlik va moliyaviy yo'qotishlar oldini olishga qaratilgan.

Ushbu holatlarning oldini olish uchun yangi Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni tanlashda va ularni davriy ishonchlilik (due diligence) tekshiruv o'tkaziladi.

1.2. Tartibning amal qilish sohasi.

Tartib Jamiyat tomonidan Biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish va ular bilan ishlash jarayonida qo'llaniladi.

Komplayens xizmati Tartibga muvofiq tekshiruvlarni tashkil qiladi, o'tkazadi va boshqaradi.

Tartib Jamiyatning barcha tuzilmaviy bo'linmalarida, shu jumladan, Nazorat ostidagi korxonalarda qo'llaniladi. Jamiyat nazorat paketiga yoki ulushiga ega bo'lmagan qo'shma korxonalar xodimlari, mansabdor shaxslari va direktorlari (menejerlari) ushbu Tartib talablariga rioya qilishlari tavsiya etiladi.

1.3. Tartib quyidagi hollarda:

- yangi Biznes hamkor va uchinchi tomonni tanlashda;
- Biznes hamkor va uchinchi tomonning ta'sischilari, benefisiarlari, rahbariyati va boshqaruvchilari o'zgarganda;
- Biznes hamkor va uchinchi tomon bilan munosabatlarning mohiyati o'zgarsa;
- Biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan munosabatlar o'rnatilganidan so'ng davriy (har 3 yilda) tekshirishlarda;
- Biznes hamkorlar va uchinchi tomonlar, ularning benefisiarlari, rahbariyati, ta'sisichilari tomonidan Komplayens talablari, shu jumladan korrupsiya,

firibgarlik, jinoiy daromadlarni legallashtirishlarga qarshi kurash, sanksiya va eksport nazorati talablari buzilganligi bo'yicha holatlar aniqlanganda tadbiq etiladi.

1.4. Tartib tadbiq etilmaydi, agar:

- yuridik shaxs Jamiyatga tegishli yoki Jamiyat nazoratida bo'lsa;
- maxsus axborot portalining elektron (milliy) do'kon va auksion savdo turlari va coopertion.uz platformasi orqali bir shartnoma qiymati BHMning 50 baravarigacha tuzilgan shartnomalar bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha yuqori likvidli va monopol tovarlar ro'yxatiga kiritilgan tovarlarni xarid qilish yuzasidan tuzilgan shartnomalar bo'lsa.

-Kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (shu jumladan, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, issiqlik ta'minoti, muhandislik-texnika ta'minoti, suv ta'minoti, suv chiqarish, oqava suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilizasiya qilish (ko'mish) tarmoqlariga ulanish), shuningdek davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlarning, xizmatlarning) narxlar (tariflar) bo'yicha etkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;

II. Asosiy qism.

3-bob. Korrupsiya xavflarini baholash mezonlari, uslublar va ularni oldini olish bo'yicha choralar.

3.1 Biznes hamkor va uchinchi tomonni baholash mezonlari.

Biznes hamkor va uchinchi tomonni baholashda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- korrupsiya xavfini baholash (Risk Assessment) – har bir biznes hamkor va uchinchi tomon xavf darajasiga qarab baholanadi;
- benefisiar egalarni aniqlash (UBO Identification) – biznes hamkor yoki uchinchi tomon o'z ta'sis hujjatlarida haqiqiy mulkdorlar haqida ma'lumot taqdim qilishi kerak va bu ma'lumotlar baholanishi lozim;
- Komplayens va korrupsiyaga qarshi siyosatlar (Compliance Policies) – hamkorning ichki Komplayens tizimi va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati va hujjatlari o'rganiladi;
- moliyaviy shaffoflik (Financial Transparency) – Soliqlar, bank tranzaksiyalari va moliyaviy majburiyatlar tahlil qilinadi;
- ommaviy axborot vositalari tahlili (Reputation Analysis) – Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning reputasiyasi turli ma'lumot bazalari, OAV, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

- sanksiyalar va qora ro'yxatlarni tekshirish (Sanctions & Blacklists Checks)
- biznes hamkorlar xalqaro yoki mahalliy sanksiyalar ro'yxatida bor-yo'qligi aniqlanishi kerak.

Komplayens xizmati ushbu mezonlar asosida tekshiriladi va xulosa tayyorlaydi.

3.2. Korrupsiya xavflarini baholash usullari.

- Ochiq ma'lumotlar tahlili (Open Source Intelligence – OSINT) – biznes hamkor va uchinchi tomon haqida ommaviy axborot vositalari, xalqaro ro'yxatlar, regulyator organlar ma'lumotlari orqali ma'lumot yig'iladi.

- Davlat fuqarolik xizmatchilari, PEP va ularning yaqin qarindoshlarga aloqasini tekshirish – biznes hamkor va uchinchi tomon ta'sisчилari, benefisiarlari, rahbarlari va boshqaruvchilari, davlat mansabdor shaxslari va siyosiy ta'sirga ega shaxslar, ularning yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslariga aloqasi tahlil qilinadi.

- Moliyaviy tahlil – biznes hamkor va uchinchi tomonning moliyaviy barqarorligi, hisobotlarini taqdim qilish holati va soliq majburiyatlarini bajarishi baholanadi.

- Tender va shartnoma jarayonlarini tahlil qilish – davlat buyurtmalari va tenderlardagi shubhali holatlar aniqlanadi.

- Huquqiy tekshiruv (Legal Due Diligence) – biznes hamkor va uchinchi tomonning sud ishlari, lisenziya va ruxsatnomalarining haqiqiyliги tekshiriladi.

- Mijozlar va sheriklar fikri – biznes hamkor va uchinchi tomonning ishbilarmonlik reputasiyasi, xalqaro va mahalliy bozordagi obro'si o'rganiladi.

- Ma'lumot bazalari - jamiyat biznes hamkorlar va uchinchi tomonlarni baholashda quyidagi manbalardan (ular bilan cheklanmagan holda) foydalanishi mumkin:

Manbaa	Ma'lumot turi
Davlat reestrlari	Yuridik shaxslar va tashkilotlarning rasmiy ro'yxati
Transparency International	Korrupsiya indeksi va reytinglar
FATF (Financial Action Task Force)	Pul yuvish va terrorizمنى moliyalashtirish xavflari
Interpol & Europol	Jinoyatchilar va xalqaro qidiruvdagi shaxslar
OFAC (US Sanctions List)	AQSh sanksiyalari ro'yxati
EU Sanctions List	Evropa Ittifoqi sanksiyalari
UK (United Kingdom) Sanctions List	Buyuk Britaniya sanksiyalar ro'yxati
UN (United Nations) Sanctions List	BMT sanksiyalar ro'yxati

World-Check & Dow Jones Risk & Compliance	Biznes hamkorlarni tekshirish uchun maxsus ba'zalar
Public.Sud.Uz	Iqtisodiy, ma'muriy, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning sud hujjatlari
IIV.Uz	Korrupsiya, firibgarlik, jinoiy daromadlarni legallashtirish va boshqa turdagi iqtisodiy jinoyatlar haqida ma'lumotlar
Boshqa davlat organlarining rasmiy saytlari	Sohaga oid rasmiy ma'lumotlarni olish

3.3. Aniqlangan xavflarni bartaraf etish va oldini olish choralari.

- Korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan ishlashni cheklash – xavf darajasi yuqori bo'lgan biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan tuzilgan shartnomalar qayta ko'rib chiqiladi yoki bekor qilinadi.

- Qo'shimcha hujjatlar va kafolatlar talab qilish – xavf darajasi yuqori va o'rta baholangan biznes hamkor va uchinchi tomonlardan ularning ishonchliligini tasdiqlaydigan hujjatlar (moliyaviy hisobotlar, Komplayens sertifikatlar, korrupsiyaga qarshi siyosati va h.k.) va xavfni oldini olishga qaratilgan turli kafolatlar talab qilinishi mumkin.

- Biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan hamkorlik shartlarini aniqlashtirish – yuqori va o'rta xavf bilan baholangan biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan kelishuvlarda ularga kengaytirilgan korrupsiyaga qarshi majburiyatlar va javobgarlikni kuchaytiruvchi qo'shimcha shartlar kiritilishi mumkin.

- Komplayens nazoratini kuchaytirish – yuqori va o'rta xavf bilan baholangan biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan tuzilgan shartnomalar uchun maxsus monitoring va audit o'tkazish tizimi joriy etiladi.

- Huquqiy choralar ko'rish – korrupsiya, firibgarlik, jinoiy daromadlarni legallashtirishlarga qarshi kurash, sanksiya va eksport nazorati talablari buzilganligi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganligi aniqlangan taqdirda, Komplayens xizmati Yuridik departament bilan hamkorlikda chora ko'rish mexanizmlarni qo'llash tadbirlarini ko'radi va tegishli davlat organlariga xabar beradi.

- Korrupsiyaga qarshi ichki tartiblarni qayta ko'rib chiqish – korrupsiya xavfi aniqlangan hollarda, Jamiyat ichki siyosatlarini takomillashtirish va qonunchilik va ISO 37001 talablariga muvofiq ravishda o'zgartirish choralari ko'riladi.

- Xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi treninglar o'tkazish – korrupsiya xavflarini kamaytirish maqsadida Jamiyat xodimlari va biznes hamkor va uchinchi tomonlar uchun muntazam treninglar tashkil etiladi.

4-bob. Xavflarni baholash matrisasi.

4.1. Yuqori xavflar (Qizil bayroq):

- manfaatlar to'qnashuvi - Jamiyat xodimlarining biznes hamkor va uchinchi tomon yoki uning haqiqiy benefisiarlari bilan shaxsiy manfaatlari mavjud bo'lsa;

- affillanganlik - biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan yoki ishtirokchilar o'rtasida affillanganlik holatlarining mavjudligi;

- sanksiyalar ta'siriga tushgan biznes hamkor va uchinchi tomonlar - agar biznes hamkor, uchinchi tomonlar va ularning ta'sischisi, rahbariyati va boshqaruvchilari, xizmat ko'rsatuvchi bank muassasalari halqaro sanksiyalar ostida bo'lsa yoki sanksiya va eksport nazorat talablari rioya qilmasa;

- pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirish xavfi - biznes hamkor va uchinchi tomonlarning yuqori xavfli yurisdiksiyalarda (masalan, sanksiyalar bo'lgan yoki korrupsiya bilan bog'liq davlatlar) joylashishi;

- raqobatning cheklanishi - Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni tanlashda yoki ular bilan aloqa qilishda xarid va raqobat to'g'risidagi qonunchilik, ichki tartib-qoidalar talablari buzilishi;

- Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning jinoiy faoliyatga aloqasi - hamkorlar, ta'sischilari, benefisiarlari, rahbariyati va boshqaruvchilari korrupsiya, firibgarlik, pul yuvish, terrorizm va boshqa jinoyatlarga aloqasi bo'lsa yoki ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan bo'lsa;

- haqiqiy benefisiar egalar (UBO) noaniqligi - Agar kompaniyaning benefisiar egalari to'g'risidagi ma'lumotlar noaniq va ularni aniqlash imkoni bo'lmasa;

- qasddan soxta hujjatlar va yolg'on ma'lumotlar taqdim qilinishi - biznes hamkor va uchinchi shaxslar ularni tanlash jarayonlarida yoki keyingi munosabatlarda bila turib soxta hujjatlar va yolg'on ma'lumotlar bersa.

4.2. O'rta xavflar (Sariq bayroq):

- shartnoma predmetiga nisbatan faoliyat turi to'g'ri kelmasligi — agar kontagentning faoliyat turi shartnoma predmetiga mos kelmasa yoki keskin farq qilsa;

- shartnoma summasiga nisbatan ustav jamg'armasining o'ta pastligi;

- shartnomada to'lov usuli 100% oldindan to'lov sharti mavjud — agar shartnomada barcha to'lovlar oldindan belgilangan bo'lsa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomonning moliyaviy holati — Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning moliyaviy barqarorligiga oid aniq ma'lumotlar yo'q bo'lsa;

- Davlat xizmatchisi va siyosiy ta'sirga ega shaxsga aloqasi – biznes hamkor va uchinchi tomonlar Jamiyat faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan Davlat xizmatchisi, siyosiy ta'sirga ega shaxs, ularning yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslariga tegishli bo'lsa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomonlar ofshor hududlarda joylashuvi, biznes hamkor va uchinchi tomon joylashgan davlatidan boshqa davlatda bank hisob raqami ochilgan bo'lsa — offshor zonalarda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar korrupsiya va pul yuvish xavfini oshiradi. Agar ushbu holatlarni aniqlash va bartaraf etish imkoni bo'lmasa, ushbu xavf yuqori darajali xavf sifatida baholanishi mumkin;

- shartnoma shartlarida aniqlikning yetishmasligi — shartnomalarda faoliyatni amalga oshirishning aniq shartlari va talablar yetishmasligi yoki mavhumliklar mavjud bo'lan taqdirda;

- Biznes hamkor va uchinchi tomonga nisbatan salbiy holatlar yoki ma'lumotlar – bunda biznes hamkor va uchinchi tomon tomonidan muqaddam sifatsiz yoki texnik nomuvofiq mahsulotlar etkazib berilganligi yoki o'z vaqtida etkazib berilmaganligi hamda OAVlar salbiy ma'lumotlar va axborotlar mavjud bo'lsa;

- shubhali narxlar - biznes hamkor va uchinchi tomonlarga tomonidan tovar, ish va xizmatlar uchun o'ta past narxlar (demping) taqdim etilsa.

4.3. Past xavflar(Yashil bayroq):

- tekshirish jarayonida Siyosatda ko'rsatilgan mezon va talablarga to'liq muvofiqligi aniqlangan biznes hamkor va uchinchi tomonlar;

- to'g'ridan to'g'ri butlovchi qismlar etkazib beruvchilar (GM approved) - bu holatdagi etkazib beruvchilar ko'pincha uzoq muddatli va oldindan tekshirish va tasdiqlash jarayonidan o'tgan bo'lishlari mumkin. Bu kabi etkazib beruvchilarni qonuniy va ishonchli deb hisoblash mumkin;

- sertifikatlashtirish va lisenziyalash talab etiladigan (jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, go'sht, sut mahsulotlari, bolalar ozuqasi), dori-darmonlar va tibbiy buyumlar, kosmetika va gigiena vositalari va qonunosti hujjatlarida belgilangan boshqa tovar va xizmatlar) tovar, ish va xizmatlarni etkazib beruvchi korxonalar bilan tuziladigan shartnomalar.

5-bob. Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks o'rganish jarayoni (Due Diligence).

5.1. Due Diligence jarayoni va uning turlari.

Jamiyat biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan hamkorlikni boshlashdan oldin, ularni har tomonlama o'rganish (Due Diligence) jarayonini amalga oshiradi. Bu jarayon quyidagi turlarga bo'linadi:

Soddalashtirilgan tekshiruv (SDD - Simplified Due Diligence) – xavf darajasi past bo‘lgan biznes hamkor va uchinchi tomonlar uchun qo‘llaniladi.

Bu holatda,

- Biznes hamkor va uchinchi tomon bilan hamkorlik korrupsiya xavfi past bo‘lgan sohalarga va bitimlar kichik qiymatga ega bo‘lsa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomon oldin korrupsiyaviy xatti-harakatlarda ishtirok etmagan va to‘g‘ri biznes amaliyotini olib borayotgani bo‘lsa;

- to‘g‘ridan to‘g‘ri butlovchi qismlar etkazib beruvchilar (GM approval) bo‘lsa;

- sertifikatlashtirish va lisenziyalash talab etiladigan tovar, ish va xizmatlarni (jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, go‘sht, sut mahsulotlari, bolalar ozuqasi), dori-darmonlar va tibbiy buyumlar, kosmetika va gigiena vositalari va qonunosti hujjatlarida belgilangan boshqa tovar va xizmatlar) etkazib beruvchi korxonalar bilan tuziladigan shartnomalar;

- Davlat organlari va tashkilotlari, xususan IIV tizimidagi, Sog‘liqni saqlash tizimidagi, O‘zbekiston pochta, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bilan tuzilgan shartnomalar va shu kabi boshqa shartnomalar;

- yagona etkazib beruvchilar reesterida mavjud biznes hamkor va uchinchi tomonlar.

Soddalashtirilgan tekshiruvda biznes hamkor va uchinchi tomonning quyidagi ma'lumotlari o‘rganiladi:

- rasmiy ro‘yxatga olish hujjatlari (lisenziya, guvohnoma va h.k.);
- korporativ tuzilma va egalik huquqi;
- boshqaruv tarkibi va rahbarlar haqida ma'lumot;
- oldingi faoliyati va ishonchliligi;
- muqaddam tuzilgan shartnomalarning ijrosi;
- xizmat ko‘rsatuvchi banki va uning joylashgan joyi.

Bu holatda biznes hamkor va uchinchi tomon haqida umumiy ma'lumotlar yig‘iladi va bazaviy yuridik hamda moliyaviy tahlil o‘tkaziladi.

Soddalashtirilgan tekshiruv har 3 yilda bir marotaba, alohida hollarda (bank rekvizitlari, manzili, boshqaruv tarkibi, egalik huquqi o‘zgarganda) zudlik bilan o‘tkaziladi.

Soddalashtirilgan tekshirish biznes hamkor va uchinchi tomon bilan shartnoma tuzishdan oldin Xaridlar transformatsiya ofisi mutaxassislari tomonidan o‘tkaziladi.

Bundan Xaridlar transformatsiya ofisi mutaxassisi tomonidan yuqorida belgilangan biznes hamkor va uchinchi tomonlar haqida ma'lumotlar belgilangan

tartibda o'rganiladi va o'rganish natijalariga ko'ra Komplayens xizmatiga "Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasi" (BJQ anketasi 2-ilova) taqdim etadi.

Soddalashtirilgan tekshirishdan o'tgan biznes hamkor va uchinchi tomonlar Komplayens xizmatining tashabbusi bilan chuqurlashtirilgan tekshirishdan ham o'tkazilishi mumkin.

Chuqurlashtirilgan tekshiruv (EDD - Enhanced Due Diligence) – yuqori xavfli biznes hamkor va uchinchi tomonlarga nisbatan amalga oshiriladi.

Bunda,

- Biznes hamkor va uchinchi tomon korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalarda faoliyat yuritsa (masalan, davlat xaridlari, energetika, qurilish, farmasevtika va h.k.);

- halqaro va milliy sanksiyalar ro'yxatida qayd etilgan bo'lsa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomon korrupsiya bilan bog'liq holatlarga aloqador bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomon ofshor kompaniyalar orqali boshqarilsa yoki egalik tuzilmasi shaffof bo'lmasa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomon siyosiy shaxslarga va davlat mansabdor shaxslariga aloqasi (Politically Exposed Persons – PEPs) mavjud bo'lsa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomon bilan bitim katta moliyaviy qiymatga ega bo'lsa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomon avvalgi faoliyati davomida korrupsiyaga oid mojarolarda ishtirok etgan bo'lsa;

- OAVda sal'biy ma'lumotlar mavjud bo'lsa;

- manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjudligi;

- soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

- Dow Jones ma'lumotlar bazasida o'tkazilgan doimiy o'tkaziladigan monitoring hisobotlarida sal'biy holatlar aniqlangan bo'lsa;

- Biznes hamkor va uchinchi tomonlarga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

- insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi;

- Biznes hamkor va uchinchi tomon noaniq yoki shubhali moliyaviy amaliyotlar bilan bog'liq bo'lsa va h.q.

Chuqurlashtirilgan tekshiruvda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Biznes hamkor va uchinchi tomonning batafsil moliyaviy va huquqiy holati o'rganiladi;

- uning egalik tuzilmasi va asosiy benefisiarlari aniqlanadi;

- Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma'lumotlar bazalarida tekshiruv o'tkaziladi;

- Biznes hamkor va uchinchi tomon haqida uchinchi shaxslardan ma'lumot olish (masalan, bozordagi ob'ro'si, boshqa hamkorlarning fikrlari va h.k.);

- tashkilot ichki va tashqi audit tekshiruvlaridan o'tkazilganligi (veb saytlarida mavjud bo'lgan taqdirda);

- lozim bo'lgan taqdirda ishlab chiqarish joylashgan joyiga chiqib o'rganish (3-ilova).

Chuqurlashtirilgan tekshiruv yangi biznes hamkor va uchinchi tomon bilan, agar soddalashtirilgan tekshiruv talablariga mos bo'lmasa va zudlik bilan o'rganish talab etilmasa 1 yilda bir marotaba o'tkaziladi.

5.2. Due Diligence jarayonida bajariladigan qadamlar.

Due Diligence jarayonida SDD va EDD tartiblarida belgilangan tekshirishlar chog'ida belgilangan tadbirlar bilan bir qatorda quyidagi asosiy bosqichlarni amalga oshiriladi.

Biznes hamkor va uchinchi tomon haqida ma'lumot yig'ish – rasmiy hujjatlar, ochiq manbalar va davlat reestri orqali biznes hamkor va uchinchi tomon haqida dastlabki ma'lumotlar olinadi.

Huquqiy va moliyaviy tahlil – biznes hamkor va uchinchi tomonning ro'yxatdan o'tish hujjatlari, moliyaviy hisobotlari, lisenziyalari va boshqa tegishli hujjatlar o'rganiladi.

Benefisiar mulkdorlarni aniqlash – biznes hamkor va uchinchi tomonning haqiqiy (ta'sischi) egasi (Ultimate Beneficial Owner - UBO) aniqlanadi.

Korrupsiya va sanksiya xavflarini baholash – biznes hamkor va uchinchi tomonning korrupsiyaga moyilligi va xalqaro sanksiya ro'yxatlarida mavjudligi tahlil qilinadi.

Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash – biznes hamkor va uchinchi tomon va Jamiyat mansabdor hamda ma'sul shaxslari o'rtasida aloqalar, affillanganlik holatlari mavjudligini tekshirish.

Qizil bayroq (Red Flag) tahlili – xavfli omillar mavjudligini baholash va ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish.

Yakuniy qaror – Komplayens xizmati biznes hamkor va uchinchi tomon bilan hamkorlik qilish yoki rad etish bo'yicha xulosasi va tavsiyalari yuzasidan

“Skrining hisoboti” (7-ilova) Kompaniya raxbariyati yoki xarid komissiya raisiga taqdim etiladi va u tomonidan yakuniy qaror qabul qiladi.

6-bob. Xavflarni o‘rganish maqsadida Komplayens xizmati tomonidan ko‘rib chiqiladigan hujjatlar, ularni rasmiylashtirish va saqlash tartiblari.

6.1. Xavflarni aniqlash va baholash maqsadida Komplayens xizmati tomonidan ko‘rib chiqiladigan hujjatlar:

- maxsus axborot portalining elektron (milliy) do‘kon va auksion savdo turlari va coopertion.uz platformasi orqali bir shartnoma qiymati BHMning 50 baravaridan yuqori bo‘lgan shartnomalar;

- tender va tanlov savdo turlari bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha xarid hujjatlari va shartnomalar;

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar;

- Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni o‘rganish yuzasidan ma'lumotnoma;

- qo‘shimcha kelishuvlar, narxlarni qayta ko‘rib chiqish bayonnomalari, yillik (choraklik) xarid rejalari hamda xarid buyurtmalari Komplayens xizmati tomonidan o‘rganib chiqiladi.

Ushbu hujjatlarning Komplayens xizmatiga elektron hujjatlar aylanish tizimi (EXAT) orqali kelib tushadi va tegishli mutaxassislar tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

6.2. Hujjatlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi.

6.2.1. Xarid buyurtmasi – jamiyatning tegishli tarmoqlari tomonidan Elektron hujjat aylanish tizimi (EXAT) platformasi orqali rasmiylashtiriladi.

Komplayens xizmati xarid buyurtmasi yillik xarid rejasiga kiritilganligi, biznes rejaga muvofiqligi, ko‘rsatilgan tovarlarning ombordagi qoldig‘i va lozim bo‘lgan boshqa holatlar o‘rganib chiqadi.

Xarid buyurtmalari Komplayens xizmati tomonidan 3 kunlik muddatda ko‘rib chiqilishi va tegishli e‘tirozlar va xavflar mavjud bo‘lmagan taqdirda EXAT tizimi orqali imzolab berilishi lozim.

Aksincha, ko‘rib chiqilayotgan hujjatga nisbatan Komplayens xizmati tomonidan e‘tirozlar yoki xavflar mavjudligi aniqlansa bu haqida EXAT tizimiga tegishli tartibda o‘z e‘tirozlari va takliflarini bildirib hujjatni rad etish tugmasini bosadi.

6.2.2. Auksion, elektron (milliy) do‘kon va coopertion.uz savdo turlari bo‘yicha o‘rganiladigan hujjatlar:

- MAPning elektron (milliy) do'kon va auksion savdo turlari va coopertion.uz platformasi orqali bir shartnoma qiymati BHMning 50 baravaridan yuqori bo'lgan shartnomalar bo'yicha biznes hamkor va uchinchi tomonlarni o'rganish ma'lumotnomasi kiritiladi. Bunda elektron shakllangan shartnoma ilova qilinishi shart;

- qisqa muddatda biznes hamkor va uchinchi tomonlarga nisbatan xavflar mavjud yoki mavjud emasligi o'rganib chiqiladi.

O'rganish davomida biznes hamkor va uchinchi tomon milliy yoki halqaro sanksiyalar ta'siriga tushganligi yoki sanksiyalarga rioya etmaslik holatlari, bizeks hamkor va uning benefisiarlari tomonidan korrupsion jinoyatlar sodir etilganligi yoki bu kabi jinoyatlarda javobgar tomon sifatida ishtirok etganligi aniqlangan taqdirda ushbu biznes hamkor va uchinchi tomon bilan elektron shaklda tuzilgan shartnomani bekor qilish yuzasidan Kompaniya raxbariyatiga hamda Xaridlar transformatsiya ofisiga EXAT va elektron pochta orqali "Skrining hisoboti"ni yuborish orqali xabar berish lozim.

O'rta yoki past xavflar mavjud bo'lgan biznes hamkor va uchinchi tomonlar aniqlangan taqdirda ular bilan tuzilayotgan shartnomalar Komplayens xizmati tomonidan alohida nazoratga olinib, korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik choralari ko'riladi.

6.2.3. Tender va eng yaxshi taklifni tanlash savdo turlari bo'yicha o'rganiladigan hujjatlar:

- xarid hujjatlari bo'yicha - "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunni va qonunosti hujjatlariga mosligi, raqobatni cheklovchi omillarning mavjud emasligi, boshlang'ich narxning asoslanganligi, baholash mezonlarining aniq va qonunga muvofiq belgilanganligi, texnik shartlarning o'zgaruvchanmasligi va boshqa holatlar o'rganib chiqiladi;

- Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni o'rganish ma'lumotnomasi (ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bilan birga DDQ anketasi ilova qilinishi shart) – biznes hamkor va uchinchi tomonlar belgilangan tartibda soddalashtirilgan yoki chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o'tkaziladi;

- Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi;

- shartnomalar – bunda shartnoma shartlari xarid hujjatlarida belgilangan shartlar asosida tuzilganligi, shartnoma shartlarida korrupsion xavflar mavjud yoki mavjud emasligi o'rganib chiqiladi.

- Kontragentdan olingan barcha hujjatlar notarial tarzda yoki kontragentning vakolatli vakili tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Taqdim etiladigan hujjatlar amal qilayotgan bo'lishi, davlat reestrlari hujjatlari esa tekshiruv sanasiga qadar 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'lmagan muddatda olingan bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan hujjatlar har biri 5 kunlik muddatda ko'rib chiqiladi va EXAT tizimi orqali maqullanadi yoki rad etish yuzasidan "Skrining hisoboti"ni tayyorlaydi.

Rad etilgan hujjatlarga "Skrining hisoboti" bilan birga 4-ilova bilan tasdiqlangan "Majmuaviy tekshiruv varog'i" ilova qilinib, rad etish asoslari bayon etiladi.

6.2.4. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha o'rganiladigan hujjatlar:

- to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilishi rejalashtirilayotgan biznes hamkor va uchinchi tomonlar tomonidan Tartibning 1-ilovasidagi DDQ so'rovnomasi taqdim etilishi shart;

- Biznes hamkor va uchinchi tomonni o'rganish ma'lumotnomasi – belgilangan tartibda soddalashtirilgan yoki chuqurlashtirilgan tekshirishda o'tkaziladi;

- shartnoma - shartnoma shartlarida korrupsion xavflar mavjud emasligi, qonunchilik normalariga mos ravishda tuzilayotganligi o'rganiladi.

Yuqorida keltirilgan hujjatlar har biri 3 kunlik muddatda ko'rib chiqiladi va EXAT tizimi orqali maqullanadi yoki rad etish yuzasidan "Skrining hisoboti"ni tayyorlaydi.

Rad etilgan hujjatlarga "Skrining hisoboti" bilan birga "Majmuaviy tekshiruv varog'i" ilova qilinib, rad etish asoslari bayon etiladi.

6.3. Hujjatlarni saqlash tartibi.

Komplayens xizmati tomonidan ko'rib chiqilgan hamda xulosa berilgan barcha hujjatlar EXAT platformasida elektron shaklda saqlab boriladi.

Komplayens xizmatining choraklik, yillik hisobotlarida aks etirilgan holatlar bilan bog'liq barcha hujjatlar EXAT tizimidan yuklab olinadi va hisobotlar bilan birgalikda yig'ma jildga tikib qo'yiladi.

Kontragentlarni tekshirish reestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, kontragentni tekshirish natijalari to'g'risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar 3 (uch) yil Ichki nazorat tuzilmasida saqlanadi.

Yig'ma jildlar har uch yilda Jamiyatning arxiviga qonunchilikda belgilangan tartibda topshiriladi.

Kontragentlarni tekshirish reestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, kontragentni tekshirish natijalari to'g'risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar konfidentsial bo'lib, Tashkilot

xodimlariga va xizmat vazifalari va vakolatlari bunday ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga olmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

7-bob. Nazorat va javobgarlik.

7.1. Komplayens xizmati tomonidan nazorat.

Komplayens xizmati Jamiyatda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida xavflarni muntazam baholash va monitoring qilish uchun javobgar.

Biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan tuzilgan barcha shartnomalar Komplayens xizmati tomonidan xavf darajasiga qarab doimiy monitoring qilinadi.

Korrupsiya, firibgarlik, jinoiy daromadlarni legallashtirish, manfaatlar to'qnashuvi, sanksiya va eksport nazoratiga oid talablarga muvofiqligi, xavflarini oldindan aniqlash maqsadida maxsus tahlil va monitoring jarayonlari olib boriladi.

Komplayens xizmati ish jarayonlarini nazorat qilish va yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

7.2. Javobgarlik.

Korrupsiyaga qarshi choralarni bajarmagan yoki xavfli biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan hamkorlik qilgan shaxslarga nisbatan intizomiy choralar ko'riladi.

Kompaniya raxbariyati yoki xarid komissiya raisi Komplayens xizmati tomonidan berilgan xulosalar va aniqlangan xavflar bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinishiga mas'ul.

Barcha biznes hamkor va uchinchi tomonlar Siyosat, Tartib va korrupsiyaga qarshi qoidalarga rioya qilishlari shart.

Siyosat va Tartib talablariga rioya qilmaslik holatlari, ularda va qonunchilikda belgilangan javobgarlika olib kelishi mumkin.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar.

8.1. Ma'qullangan Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning ro'yxati.

Komplayens xizmati tekshiruvdan o'tgan Biznes hamkor va uchinchi tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etilgan Ma'qullangan Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning ro'yxatini yuritadi (5-ilovaga).

8.2. Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning "qora ro'yxati".

Komplayens xizmati tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarda Siyosatda belgilangan cheklovlar (qizil bayroqlar)ni buzgan hamda hamkorlik doirasida nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etgan biznes hamkor va uchinchi tomonlarning "Qora ro'yxati" (6-ilova) shakllantiriladi. Ushbu ro'yxat xizmatdan foydalanish maqsadida yuritiladi.

8.3. Siyosat talablari buzilishi to'g'risida xabar qilish, tekshirish va javobgarlik choralari.

Har qanday shaxs ushbu siyosat bo'yicha maslahat olmoqchi yoki siyosat talablari buzilishi holatlari bo'yicha xabar qilmoqchi bo'lsa, Kompaniyaning +998 78 140 76 70 ishonch telefoni, "compliance@uzavtosanoat.uz" elektron pochta manzili, "Uzavtosanoat_compliance_bot" telegram messenjeri, "<https://uzavtosanoat.uz/compliance/feedback>" veb-sayti orqali Komplayens xizmatiga murojaat qilishi mumkin.

Jamiyat vujudga kelgan huquqbuzarliklar to'g'risida vijdonan xabar bergan shaxslarga nisbatan hech qanday ta'sir yoki ta'qib choralarini qo'llamaydi.

8.4. Ilovalar.

1-ilova – Kompleks tekshiruv anketasi (Due Diligence Questionnaire yoki DDQ).

2-ilova – Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasi (Business Justification Questionnaire yoki BJQ).

3-ilova – Hududga tashrif.

4-ilova – Majmuaviy tekshiruv varog'i.

5-ilova – Ma'qullangan Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning ro'yxati.

6-ilova – Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning "qora ro'yxati".

7-ilova – Skrining hisoboti.